

KESIMLIK KATEGORIYASI UMUMIY GRAMMATIK MA'NOSI VOQELANISHIDA LISONIY OMILLARNING O'RNI

Qalandarova Dilduza Satimboyevna

CHDPU mustaqil tadqiqotchisi

dilfuzatoshpulatova776@gmail.com, Telefon: +998933974227

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18998185>

Annotatsiya. Ushbu maqolada kesimlik kategoriyasining umumiy grammatik ma'nosini voqelantirishda lisoniy omillarning o'rni tahlil qilinadi. Shaxs-son ichki kategoriyasi, egani ifodalash va kesimning leksik, morfologik hamda sintaktik vositalar bilan shakllanishi misollar orqali yoritilgan. Tadqiqotda shaxsning kuchayishi yoki susayishi, egasining obligatorligi va fakultativligi, shuningdek, nutqda ta'kid va presuppozitsiya vositalarining roli ko'rsatib o'tilgan. Natijada maqola kesimlik ma'nosining grammatik va semantik reallanishi hamda lisoniy vositalar bilan bog'liqligini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: kesimlik kategoriyasi, shaxs-son ichki kategoriya, leksik omil, morfologik omil, sintaktik omil, egasi, gap kesimi.

Annotation. The article analyzes the role of linguistic factors in the realization of the general grammatical meaning of the predicate. It focuses on the person-number internal category, illustrating how the subject is expressed and how the predicate is shaped through lexical, morphological, and syntactic means. The study highlights the strengthening or weakening of person meaning, the obligatoriness and optionality of the subject, as well as the role of emphasis and presupposition in speech. The research demonstrates the interaction between grammatical and semantic realization of the predicate and the influence of linguistic tools on its actualization.

Keywords: predicate category, person-number internal category, lexical factor, morphological factor, syntactic factor, subject, sentence predicate.

Ma'lumki, kesimlik kategoriyasining tarkibiy qismi bo'lgan shaxs-son ichki kategoriyasi harakatning har uchala shaxsdan biriga qarashlilikini yoki bajaruvchi yoxud subyektning noma'lumligini ifodalab, kesimning ega bilan aloqasini ko'rsatadi¹. Mavjud adabiyotlarda aytilganidek, ayrim gaplarda gap kesimida u birikuvchi so'zning o'timli-o'timsizligiga bog'liq ravishda, shuningdek, gapning struktur xususiyatidan kelib chiqqan holda shaxs-son ma'nosi butunlay so'nishi mumkin. Masalan, *Bugun stadiona boriladi, Uyga qachon qaytiladi* gaplarida buni ko'rishimiz mumkin. Gaplarda boshqa ichki kategoriyalar ma'nolarining yoki ulardan birining kuchayishi evaziga shaxs ma'nosi nol darajagacha susayadi. Buni ham, albatta, avvalo subyektiv omillar, qolaversa, lisoniy omillardan qidirish kerak bo'ladi.

Leksik omil. Shaxs-son kategoriyasi "shaxs" tarkibiy qismining voqelanishida kesim vazifasida kelayotgan so'zning leksik xususiyati muayyan rol o'ynaydi. Masalan, "buyruq" ma'nosi ifodalanishi uchun kesim vazifasidagi so'z "harakat" yoki "holat" ma'nolaridan birini anglatishi lozim. Bu esa kesimning har doim fe'l bo'lib kelishini taqozo qiladi. **Misollar:** 1. Qassob, ko'ngling bilan eshit – quloq aldaydi, aqling bilan ko'r – ko'z aldaydi (Tog'ay Murod). 2. Yana bir kelinglar, maslahatlashib olaylik (Tog'ay Murod). 3. Bolam, sen hali yoshsan, bozorga

¹ Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zME, 2002. – B.130.

intilaverma. Bozor shaytonning masjidi ekan, unda har turli nayranglar borki, yaxshi-yomonni ajratishga hali sening murg'ak aqling zaiflik qiladi (Tohir Malik). Agar kesim harakat/holatdan boshqa narsani anglatga ham, unga harakat/holat tusi beriladi: 1. *Ayt, unga oqil bo'lsin, o'z yo'lini bilib yursin* (S. Nur). 2. *O'qing, mullo bo'ling!*

Morfologik omil. Kesimlik shakli "ta'kid" ma'nosini ifodalashi uchun [-ku] yuklamasining hamkorligiga ehtiyoj sezadi va bunda fonetik (aktsentativ) omil ham hamkorlik qiladi. **Misollar:** 1. Maktabning hojatxonasida chekishsa, maktab aybdor bo'lib qolmaydi-ku (Tohir Malik). 2. – O'l-a, yuragimni yording-ku! – dedi (Tog'ay Murod) Ammo telbaning shon-shuhrat shohsupasiga chiqish arafasida aqldan ozib qolgani haqidagi ma'lumotdan boshqa hech qanday yangi gap ololmadim; ko'plar unga ochiq hasad qilib, "Avvaldan telbaroq edi" deyishdan nariga o'tmadi; boshqa birlari esa "Shahar shu darajada go'zal va muvaffaqiyatli qurildi-ku, u buni kutmagandi, birdan aqli shoshib qoldi" deyishdi, biroq shu narsa ayon ediki, u ko'plarining xotirasidan butkul o'chib ketgandi (Nazar Eshonqul). Ta'kid kuchayganligi sababli urg'uning ham ahamiyati oshib, u o'z o'rnini o'zgartiradi va yuklamadan oldingi bo'g'inga ko'chadi. Berilgan misollardagi barcha shaxs-son shakllari "ta'kid" ma'nosi bilan birga "shaxs" va "son" ma'nosini ham kuchaytiradi, ish-harakatning bajaruvchisi soni e'tiborni tortarli darajada uqtiriladi. Morfologik omil kesimlik ma'nolarining ifodalanishida muhim rol o'ynaydi. Chunki "kesimlik kategoriyasi murakkab ekan, uning tarkibiy qismining yuzaga chiqishida uch holat farqlanadi: a) kesimlik ma'nosining yig'iq ifodalanishi: **Yoz. Boray. O'qigin. O'qituvchiman. Shifokorsiz;** b) kesimlik ma'nosining yoyiq ifodalanishi: **Yozmasaydingiz. O'qituvchidirman;** v) kesimlik ma'nosining tafsiliy ifodalanishi: **O'qisa bo'ladi. Ishchi edim. Yog'sa kerak**".²

Kesimlik kategoriyasining umumiy grammatik ma'nosi har bir ichki kategoriyada modifikatsiyalanadi, ichki va tashqi omillarga bog'liq ravishda ularning nisbati ham o'zgaradi. "Gap kesimini shakllantirish" kategorial ma'nosi har bir shaklda parchalanadi. Shaki nollashganida ifodali shakllarda uni belgilashga intilish kuchayadi. Masalan, buyruq mayli kesimlik tarkibida kesimlikning boshqa ma'nolarini o'ziga yondosh ma'no sifatida namoyon qiladi:

		Ma'no turlari	Shaxs -son	zamon	Tasdiq-inkor	Mayl
Ma' no turlari	Kategorial ma' no	Gap kesimni shakllantirish	+	+	+	+
		Shaxs-son	+			
	Yondash ma' no	zamon		+		
		Tasdiq-inkor			+	
		Mayl				+
	Hamroh ma' no	Sub'yektiv munosabat	+	+	+	+
		Uslubiy ma'no				+

² Zamonaviy o'zbek tili: Morfologiya. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2008. – B.368.

		Shaxs ko'chishi	+			
		Zamon ko'chishi		+		
		Tasdiq orqali inkor			+	
		Inkor orqali tasdiq ³			+	

Kategoriya ichki shakllaridan biri ma'nosining kuchayishi boshqalarining susayishiga olib kelishi kesimlik shakllari umumiy grammatik ma'nosi voqelanishida morfologik vositalarning o'rni qay darajada ekanligini ko'rsatadi. Biz bu masalaga doir qarashlar bilan tanishish uchun o'quvchilar diqqatini tilshunos N. Musulmanovanning **“Grammatik shakllarda kategorial, yondosh va hamroh ma'no”** (Toshkent: Fan, 2012) monografiyasiga qaratgan holda boshqa lisoniy omillarning roli muammosi to'g'risida fikr yuritamiz. **Sintaktik omil.** Kesimlik shakllari umumiy grammatik ma'nosini voqelantirishda boshqa lisoniy omillarga nisbatan sintaktik omillarning o'rni va roli o'ta yuqori. Shaxs-son ichki kategoriyasining o'z ma'nolarini voqelantirishida gap egasining roli o'ta yuqori. Chunki ega va kesimni muvofiqlashtirish – shaxs-son kategoriyasining asosiy ma'nolaridan biri. “Shaxs” ma'nosi ish-harakatning uch shaxsdan biriga tegishli ekanligini ko'rsatadi. Bunda ikki holatni alohida ta'kidlash lozim: a) “shaxs” grammatik ma'nosining voqelanishida eganing obligatorligi; b) “shaxs” grammatik ma'nosining voqelanishida eganing fakultativligi.

Bu egali gaplarning egasi ifodalangan va egasi ifodalanmagan turlarini farqlash bilan bog'liq. Ega va kesim **W, Pm** uzvlarining o'ziga xos xususiyati va munosabati tufayli nutqda ega tushirib qoldirilmaydi, kesimlikdagi shaxsning muayyanligi ta'minlanadi. Bunda ega:

- a) kesimdagi **W** uzvining talabi bilan shaxs-sonni muayyanlashtiradi;
- b) kesimdagi **Pm** talabi bilan shaxs-sonni muayyanlashtiradi.

Quyida ularning har birini alohida-alohida ko'rib chiqamiz:

Kesimning **[W]** qismi vazifasida ibora kelganida uning tarkibidan egani tushirib qoldirib bo'lmaydi, chunki ibora ega va kesim yaxlitligidan iborat hamda gap ko'rinishida bo'ladi: 1. *Bu xabardan mening tarvuzim qo'ltig'imdan tushdi (Gazetadan).* 2. *Markazga kelib, bo'lib o'tgan voqealarning butun tafsilotini eshitgan Qalandarovning fig'oni falakka chiqdi.* Iboralar **[ega + hol + kesim]** qolipida bo'lib, bu qolip yaxlit (monolit) strukturaga ega. Bundagi ega kesimning ma'noviy imkoniyatini yuzaga chiqarish uchun o'ta zarur. Shu o'rinda iboralar bitta gap bo'lagi maqomida bo'ladi degan an'anaviy qarashlarni qayta o'ylab ko'rish kerakligini ta'kidlash lozim.

II. Ma'lumki, ayrim hollarda o'timli fe'llarning semantikasi ularning vositasiz to'ldiruvchi bilan o'ta zich aloqada bo'lishini taqozo qiladi (masalan, *kuzatmoq, ko'rmoq, aytmoq*). Bu so'zlarning obyekt valentligi (tushum kelishigidagi kengaytiruvchisi) zaruriy. Shu boisdan fe'l majhul nisbatga o'tgach, ularning vositasiz to'ldiruvchisi egaga aylanadi, shuningdek, mazkur kompletiv aloqa ham saqlanib qoladi, avval to'ldiruvchi, endi esa eganing ifodalanishi zarur bo'lib qoladi: 1. *Oqibat hozirgacha ham ayrim fuqarolar, ayniqsa, yoshlar orasida ikkilanishlar, hatto muxolifat tomoniga og'ib ketish kabi achinarli holatlar kuzatilmoqda (Gazetadan).* 2. *Natijada ko'plab fuqarolar uchun buzg'unchi muxolifatning asl basharasi, uning maqsad va*

³ Мусулманова Н. Грамматик шаклларда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно. – Тошкент: Фан, 2012. – Б.52.

vazifalari, mohiyati, kirdikorlari to'laqonli bayon etib berilmadi (Gazetadan). Yig'inda fermer xo'jaliklari taraqqiyoti uchun mahalliy fermerlar tomonidan qo'yilayotgan sun'iy g'ovlarning sabablari ham aytiladi (Gazetadan).⁴

III. Taqlid so'zlar ma'nolarining o'ziga xosligi, "g'ayrioddiylik" ham gap qurilishida eganing zarurligini va kesimdagi "shaxs-son" ma'nosining reallashishi uchun ahamiyatini oshiradi. Zero, "taqliddagi ma'noviy g'ayrioddiylik uni boshqa mustaqil so'z turkumlaridan ajratib turadi".⁵ "Kesimning [W] qismi taqlid so'zlardan yasalgan fe'llar bilan ifodalanishi ham eganing voqelanishini taqozo etadi": 1. *Eshik taq-taq qildi.* 2. *Yuragim shuvillab ketdi.* 3. *Qarg'a qag'illaydi.*

IV. Tabiat hodisalarini ifodalovchi ayrim fe'llar ham eganing mazmuni bilan o'ta zichlashib ketganligi bois nutqda eganing tushib qolishiga yo'l qo'ymaydi: *Tong otdi. Kun botdi. Chaqmoq chaqdi. Qorong'i tushdi.*⁶ Nutqda shaxs-son qo'shimchalarining ko'chma ma'no ifodalashi ham eganing mavjudligiga ishora qiladi. Xulosa shundan iboratki, tadqiqotda kesimlik kategoriyasining umumiy grammatik ma'nosini nutqda voqelantirishda leksik, morfologik va sintaktik omillarning roli tahlil qilindi. Shaxs-son ichki kategoriyasi, egani ifodalash, kesimning harakat va holat bilan bog'liqligi, shuningdek, urg'u, presuppozitsiya va ta'kidning predikatning semantik va grammatik tuzilishiga ta'siri ko'rsatildi. Tadqiqot shuni isbotlaydiki, kesimning grammatik va semantik qurilishi bir-biri bilan uyg'unlashgan holda nutq jarayonida aniq va mantiqiy ifodaga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Hojiev A. *Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.* – Toshkent: O'zME, 2002. – B.130.
2. *Zamonaviy o'zbek tili: Morfologiya.* – Toshkent: Mumtoz so'z, 2008. – B.368.
3. Мусулманова Н. Грамматик шаклларда категориял, ёндош ва ҳамроҳ маъно. – Тошкент: Фан, 2012. – Б.52.
4. Sayfullaeva R., Mengliyev B., Qurbonova M. va b. *Hozirgi o'zbek adabiy tili.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B.351.
5. *Zamonaviy o'zbek tili: Morfologiya.* – Toshkent: Mumtoz so'z, 2008. – B.425.
6. Sayfullaeva R., Mengliyev B., Qurbonova M. va b. *Hozirgi o'zbek adabiy tili.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B.352.

⁴ Sayfullaeva R., Mengliyev B., Qurbonova M. va b. *Hozirgi o'zbek adabiy tili.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B.351.

⁵ *Zamonaviy o'zbek tili: Morfologiya.* – Toshkent: Mumtoz so'z, 2008. – B.425.

⁶ Sayfullaeva R., Mengliyev B., Qurbonova M. va b. *Hozirgi o'zbek adabiy tili.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B.352.